

## MEHMONDO'STLIK INDUSTRIYASI TUSHUNCHASINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING IJTIMOYIY-IQTISODIY MOHIYATI

*Xamitov Mubin Xabibjonovich*

*i.f.f.d., (Phd)*

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, “Turizm” kafedrasida dotsenti v.b.*

[mubin.hamitov.1988@mail.ru](mailto:mubin.hamitov.1988@mail.ru)

+99850 720 66 96

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mehmondo'stlik industriyasining turizmni rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati, mehmondo'stlik industriyasi tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari hamda uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Shuningdek, mehmondo'stlik industriyasi tushunchasiga xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan berilgan ta'riflar tadqiq etilib, mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** turizm, mehmondo'stlik, mehmondo'stlik industriyasi, mehmon, ehtiyoj, bo'sh vaqt, iltifot, xodimlar, umumiy ovqatlanish korxonalari, transport xizmatlari, joylashtirish xizmatlari, madaniy-ko'ngilochar xizmatlar.

**Kirish.** Turizm o'zining ko'p qirrali tarkibi bilan jamiyat hayotining barcha sohalariga faol ta'sir o'tkazib kelmoqda. U iqtisodiyotning ko'pgina jabhalarini rivojlantirishga imkon tug'diradi. Jumladan, transport tarmoqlari, aloqa, yo'l qurilishi, mehmonxonalar, umumiy ovqatlanish korxonalari, kammunal xo'jaligi, maishiy xizmat ko'rsatish, servis sohasi, savdo tarmoqlari va boshqa shunga o'xshash sohalarni o'z ichiga oladi. Turizmni rivojlantirish bir vaqtning o'zida o'ziga xos dam olish, hordiq chiqarish, ko'ngil ochar maskanlar industriyasini tashkil etib, o'z o'rnida sayyohlarga sifatli xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bir qator sohalarni qamrab oladi.

Turizm sohasi hozirgi kunda jahondagi eng serdaromad sohalardan biri bo'lib, uning iqtisodiyotdagi ulushi tobora ortib bormoqda. Shuning uchun ko'pgina mamlakatlar turizm sohasini rivojlantirmoqdalar. Jumladan mamlakatimizda ham bu sohani rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Bugungi kunda juda tezlik bilan taraqqiy etib borayotgan dunyoda insonlar fikri, ularning harakatlari, hayotdan zavq olish yo'llari o'zgarib bormoqda. Insonlar bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazib, dam olishga, sog'ligini tiklashga, dunyoni, xalqlarning urf-odatlarini, qadriyatlarini bilishga intilmoqdalar. Bunday xizmatlarni turizm sohasi ko'rsatadi. Insoniyat har doim o'zining harakat doirasini o'zgartirib, yangi yerlarni kashf qilishga intilgan. So'nggi asrga kelib bunday intilishlar kuchaydi va turizmning rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Mehmondo'stlik industriyasi jahon xo'jaligining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Xalqaro turizm neft qazib chiqarishdan so'ng eng yirik eksport tarmoqlari qatoriga kiradi. Boshqa manbalarga ko'ra turizm jahon xo'jaligining eng rentabelli sohasi hisoblanadi. Turizm industriyasida butun jahondagi ishchi kuchining 60 % qismi mehnat qiladi.

Odatda turizm industriyasi kam rivojlangan hududlar, u yerga inson ta'sir ko'rsatmagan, boshlang'ich holati saqlangan lanshaftlari qiziqtiradi. Ko'pincha asosan

qishloq xo'jaligi rivojlangan hududlar. Mahalliy aholi uchun turizm muhim qo'shimcha daromad manbaidir. To'lov balansini muvozanatlashtirish funksiyasi hisoblanadi.

Mustaqil o'lkamizning jahon hamjamiyatida keng miqyosda e'tirof etilishi, dunyoning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlari bilan o'zaro do'stona munosabatlarning yanada barqarorlashib borishi, tashrif buyurayotgan turistlar oqimining yil sayin ortib borishi, yurtimizda mavjud yangidan-yangi turizm imkoniyatlarining kashf etilayotganligi va boshqa shu kabi o'zgarishlar fikrimizning yaqqol dalili bo'la oladi. Boshqa iqtisodiy tarmoqlarda bo'lgani kabi, turizm sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatimizga tashrif buyuradigan turistlarga xizmat ko'rsatish sifatini yanada takomillashtirish va bozor talablariga to'liq javob beradigan mehmondo'stlik industriyasiga ega mamlakat sifatida dunyo hamjamiyati e'tiborini jalb etishdir.

Mehmondo'stlik va turizm industriyasi iqtisodiyotning jadal rivojlanib borayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Hozirgi vaqtda mehmondo'stlik va turizm industriyasi ulushiga jahon yalpi milliy mahsulotining 5% i to'g'ri keladi.

**Adabiyotlar sharhi.** “Mehmondo'stlik industriyasi” tushunchasi shunchalik ko'p qirraliki unga mos ravishda “mehmondo'stlik” tushunchasiga ham aniqlik kiritish ancha murakkab masaladir.

Ko'pgina xorijiy olimlarning ilmiy ishlari mehmondo'stlik industriyasi tushunchasini yoritishga bag'ishlangan, xususan: Braymer R.A., Beyker S.A., Peydj G.S., Zorin I.V., Kvartalnov V.A., Solovyev B.L., Tolstova L.A., Chudnovskiy A.D., Vagen Lini Van Der, Uoker D.R., Uebster Elley L.<sup>7</sup> va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda mehmondo'stlik industriyasi tushunchasi va uni takomillashtirish jihatlari mamlakatimiz olimlaridan Tuxliyev I.S. Abduxamidov S.A., Pardayev M.Q., Xalikulov A.N., Raximov X.A., Xamitov M.X.<sup>8</sup> va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida atroflicha yoritilgan.

Yuqorida sanab o'tilgan mamlakatimiz olimlari tomonidan O'zbekistonda turizm tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, turlari va tasniflanishi hamda mehmonxonalar va shunga o'xshash joylashtirish vositalarining turlari va tasniflanishi bo'yicha batafsil ilmiy izlanishlar olib borilgan. Biroq mehmondo'stlik industriyasi tushunchasi to'liq yoritilmagan, bu esa mehmondo'stlik industriyasi tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari va uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati bo'yicha tadqiqotlar olib borish hamda tegishli takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish xalqaro turizm bozorida

<sup>7</sup> Браймер Р.А., Бейкер С.А., Пейдж Г.С. и др. Основы управления в индустрии гостеприимства. Авториз. пер. Е.Б.Цыганова. - Москва: Аспект-пресс, 1995. - 381 с. Зорин И.В., Квартальнов В.А. Энциклопедия туризма. Справочник. М.: Финансы и статистика, 2003. 368 с. Соловьев Б.Л., Толстова Л.А. Менеджмент гостеприимства. М., 1997. 108 с. Чудновский А.Д. Туризм и гостиничное хозяйство. Учебник. - М.: Ассоциация авторов и издателей «Тандем». Издательство ЭКМОС. 2001, - 400 с. Ваген Лини Ван Дер. Гостиничный бизнес: Учебное пособие. Ростов н/Д., 2001. Уокер Д.Р. Введение в гостеприимство. Учебник. Издательство: ЮНИТИ-ДАНА. М., 2012. 735 с. Уэбстер Эллеин Л. Толковый словарь Эс Джей. Переводчик. Пуксант Марина; 2022 г. 304 с.

<sup>8</sup> Тухliyev I.S. Abduxamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik (Uchinchi nashr) –Т.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2021 y. - 424 b. Pardayev M.Q., Xalikulov A.N., Raximov X.A. “Mehmonxonona xo'jaliklarida samaradorlikni oshirish muammolari” nomli monografiya T.: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2013. - 44 bet. M.X.Xamitov. Mehmonxonona xo'jaligida servis faoliyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand 2023 y, 157 b.

mehmondo'stlik industriyasining barqarorligini shakllantirishda hamda rivojlantirishga ta'sir qilishi mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Mehmondo'stlik hamda unga yaqin bo'lgan biznesning mehmondo'stlik industriyasi sektoriga diqqat e'tiborni jalb qilish zarur. R.Braymerning fikricha, mehmondo'stlik - bu istalgan g'amxo'rlik bilan xizmat ko'rsatishning siridir. Mehmonga nisbatan iliq munosabatda ko'rsatilgan g'amxo'rlik, mijoz ehtiyojini oldindan sezish qobiliyati, xizmat ko'rsatuvchining tabiiy qirralari o'ta muhim hisoblanadi. R.Braymerning fikricha, mehmondo'stlik industriyasi mehmonlarni qabul qilish va ularga xizmat ko'rsatish bilan bog'lik bo'lgan xizmatlar bozoriga ixtisoslashtirilgan tadbirkorlikning ko'p sonli va turli xil shakllari uchun yig'ma tushuncha bo'lib hisoblanadi. U qamrab oladigan barcha asosiy faoliyat turlarining ro'yxati mavjud emas. Biroq quyidagi asosiy yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin: umumiy ovqatlanish, joylashtirish, tashish va dam olish (rekreatsiya).

I.I.Zorin va V.A.Kvartalnovlar quyidagi ta'rifni taklif keltiradilar: mehmondo'stlik bu iste'molchilar ehtiyojini ularning xavfsizligini, jismoniy va psixologik jihatdan qulayligini kafolatlab, mehmonlar ehtiyojini qondirish maqsadida xizmat ko'rsatuvchi xodimning iltifotli hatti-harakatlari, xushmuomalaligi va dam olishning shinam muhitini turistik xizmatlar ishlab chiqarish bilan birgalikdagi uyg'unlashuvdir<sup>9</sup>.

Mehmondo'stlik - turistik mahsulotning muhim iste'mol xususiyatlaridan biri bo'lib, u mijozga hurmat, unga iltifot ko'rsatish, mehmonning ushbu yerga tashrif buyurganligidan xursandligi, hamda o'z minnatdorchiligini namoyish qila olish qobiliyati bilan belgilanadi.

G.Peydjning ifodalashicha, mehmondo'stlik - inson uchun eng birinchi va eng asosiy ishdir. Mehmondo'stlik bu hatti-harakatlar (odob axloq) falsafasidir, biroq industriya esa, mukofotlash uchun servisdur<sup>10</sup>. D.Ugbeter fikricha, mehmondo'stlik industriyasi bu mehmonlarga nisbatan xushmuomalalik va iltifotni ifodalovchi, mehmondorchilik prinsiplariga tayanuvchi xizmat turlaridan tashkil topgan tadbirkorlik sohasidir.

Biroq B.L.Solovev va L.A.Tolstovlarning fikricha, mehmondo'stlik industriyasining asosiy tarkibiy qismlari bo'lib, yuqorida qayd qilingan faoliyat turlari ro'yxati emas, balki mehmondo'stlik biznesida samarali faoliyat ko'rsatishning asosiy me'zoni bo'lib hisoblanadi<sup>11</sup>.

Mehmondo'stlik turizmning bir qismi sifatida mazkur sohaning rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Shu tufayli mehmondustlik industriyasini tashkil qilish ham sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Bularni inobatga olib mehmondo'stlik industriyasining ham ta'rifini ishlab chiqish maqsadga muvofiq, deb topildi. Mehmondo'stlik industriyasi deganda mehmondo'stlikni amalga oshirish bilan

<sup>9</sup> Зорин И.В., Квартальнов В.А. Энциклопедия туризма. Справочник. М.: Финансы и статистика, 2003. 368 с.

<sup>10</sup> Браймер Р.А., Бейкер С.А., Пейдж Г.С. и др. Основы управления в индустрии гостеприимства. Авториз. пер. Е.Б.Цыганова. - Москва: Аспект-пресс, 1995. - 381 с.

<sup>11</sup> Соловьев Б.Л., Толстова Л.А. Менеджмент гостеприимства. М., 1997. 108 с.

bog'liq xizmatlar bozorini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyati tushuniladi<sup>12</sup>.

Turizmga oid adabiyotlarda «turizm va mehmondo'stlik industriyasi» termini keng qo'llanilib kelinmoqda<sup>13</sup>. Unda e'tirof etishilicha mehmondo'stlik turizmga nisbatan kengroq va umumiy tushuncha deb karalmokda. Chunki, uning vazifasi nafakat turistlarning ehtiyojlarini, balki barcha iste'molchilar ehtiyojlarini kondirishga karatilgan, deyilmokda. Bizning fikrimizcha, turizm va mehmondo'stlikni ayri xolda karab bulmaydi. Shu tufayli mehmondo'stlik industriyasini ham alohida kurib chikish mumkin emas. Chunki turistlar ham sayohat maqsadiga bog'lik ravishda o'ziga xos ehtiyojlarga ega bo'lgan iste'molchilar hisoblanadi.

Mehmondo'stlik industriyasi tarixan turli mehmonxona korxonalari, ya'ni joylashtirish xizmatlari ko'rsatuvchi tarmoqlarda shakllangan. Umumiy holda mehmonxona deganda tashrif buyuruvchilar uchun mebellar bilan jihozlangan, yashash uchun tayyor holga keltirilgan xonalardan iborat bino tushuniladi. Zamonaviy sharoitda mehmonxona fuqarolarga, shuningdek, alohida turistlar yoki maxsus guruhlariga mehmonxona xizmatlarini kursatuvchi korxonaga hisoblanadi. Ammo bu tushuncha buyicha ham turli qarashlar mavjud. Ularni umumlashtirib, mehmonxonaga quyidagi ta'rifni berish maqsadga muvofiqdir:

Mehmonxona deganda mehmonlarning (turistlarning) vaqtincha yashashi, ya'ni dam olishi va ishlashi uchun zarur bulgan sharoitlar yaratilgan va talab qilinadigan qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatishga mo'ljallangan maxsus xo'jalik tushuniladi. Bizning fikrimizcha, ushbu ta'rif mehmonxonaning mazmunini to'liq o'zida ifoda etadi.

Zamonaviy mehmonxona korxonasi iste'molchilarga nafaqat turar joy va ovqatlanish xizmatlari, balki transport, aloqa, ko'ngilochar ekskursiya xizmatlari, tibbiyot, sport, go'zallik salonlari kabi keng qamrovli xizmatlarni taklif etadi. Amalda mehmonxona korxonasi turizm va mehmondo'stlik industriyasi tarkibida asosiy funksiyalarni bajaradi, iste'molchilarga kompleks xususiyatlarga ega mehmonxona mahsulotini taklif etadi. Bu mahsulotning shakllanishi va sotilishida turizm va mehmondo'stlik industriyasining barcha sektorlari hamda elementlari ishtirok etadi. Shu nuqtai nazardan ishda mehmonxona biznesini turizm va mehmondo'stlik industriyasining tarkibiy qismi sifatida mustaqil ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq, deb topdik.<sup>14</sup> Shu bois ba'zi masalalar ma'lum darajada turizm va mehmondo'stlik industriyasi bilan uzviy aloqada o'rganiladi.

Barcha lug'atlarda “mehmondo'stlik” tushunchasi mehmonlarni takalluf ko'rsatib ochiq chehra bilan kutib olishni anglatadi.

Mehmondo'stlik – bu taraqqiyotning tushunchalaridan biri bo'lib, vaqt va rivojlanish tufayli u millionlab tajribali xodimlar faoliyat ko'rsatib, turistlar (xizmat iste'molchilari) uchun yanada sifatli xizmatlarni taklif etuvchi qudratli industriyaga

<sup>12</sup> Pardayev M.Q., Xalikulov A.N., X, A.Raximovlarning "Mexmonxona xo'jaliklarida samaradorlikni oshirish muammolari" nomli monografiya T.: "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2013. - 44 bet.

<sup>13</sup> Чудновский А.Д. Туризм и гостиничное хозяйство. Учебник. - М.: Ассоциация авторов и издателей «Тандем». Издательство ЭКМОС. 2001, - 400 с.

<sup>14</sup> Pardayev M.Q., Xalikulov A.N., Raximov X.A. “Mexmonxona xo'jaliklarida samaradorlikni oshirish muammolari” nomli monografiya T.: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2013. — 44 bet.

aylandi. Mehmondo'stlik industriyasi kishilarning turli faoliyat sohaslarini – turizm, dam olish, ko'ngilchog'lik, mehmonxona va restoran biznesini, umumiy ovqatlanishni hamda ekskursiya faoliyatini, turli ilmiy konferensiyalar o'tkazishni va ko'rgazmalar tashkil etishni o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, mehmondo'stlik industriyasi – turistlarning har qanday xohish va ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, xodimlar faoliyatining murakkab va ko'p qirrali sohasidir. Turli xorijiy mutaxassislar ushbu tushunchani har xil talqin qiladilar. Masalan, L.Vagenning fikricha, mehmondo'stlik industriyasi – bu turistlarni joylashtirish, alkogol ichimliklar sotish, turar joy va oziq-ovqat taqdim etish, shuningdek, ko'ngilochar tadbirlarni tashkil etishga yo'naltirilgan faoliyat sohasi<sup>15</sup>. D.R.Uoker esa mehmondo'stlik industriyasi turizmni, mehmonxona va restoran biznesini, umumiy ovqatlanishni, dam olish va ko'ngilocharlikni, shuningdek, konferensiyalar va yig'ilishlar tashkil etishni birlashtiruvchi kompleks soha sifatida tasvirlaydi<sup>16</sup>. E.Uebsterning izohli lug'atida esa mehmondo'stlik industriyasi mehmonlarga nisbatan do'stona munosabat, mehribonlikni namoyon etuvchi, mehmondo'stlik prinsiplariga asoslangan xizmat turlaridan iborat tadbirkorlik sohasidir<sup>17</sup>.

R.A.Braymerning fikricha, mehmondo'stlik industriyasi mehmonlarni qabul qilish va ularga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar bozoriga ixtisoslashgan turli xil va ko'p sonli tadbirkorlik shakllari uchun yig'ma tushuncha bo'lib hisoblanadi<sup>18</sup>. Mehmondo'stlik industriyasining asosiy yo'nalishlari: umumiy ovqatlanish, joylashtirish, tashish va dam olish.

Olimlarning izlanishlardan kelib chiqqan holda muallif yondashuvlarining tizimli imkoniyatlarini ishlab chiqamiz.

### 1-jadval

#### Mehmondo'stlik industriyasi tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari<sup>19</sup>

№	Muallif (lar)	Ta'rif	Muallif yondashuvi
1.	R.Braymer	Mehmondo'stlik - bu istalgan g'amxo'rlik bilan xizmat ko'rsatishning siridir.	Xizmat ko'rsatishda boshpanani yaratish orqali g'amxo'rlik tizimini yaratiladi.
2.	I.I.Zorin, V.A.Kvartalnov	Mehmondo'stlik bu iste'molchilar ehtiyojini ularning xavfsizligini, jismoniy va psixologik jihatdan qulayligini kafolatlab, mehmonlar ehtiyojini qondirish maqsadida xizmat ko'rsatuvchi xodimning iltifotli hatti-harakatlari, xushmuomalaligi va dam olishning shinam muhitini turistik xizmatlar ishlab chiqarish bilan birgalikdagi uyg'unlashuvidir	Xizmat ko'rsatish jarayonida va xizmatlarni taqdim etishda turli xavf-xatarlarni inobatga olgan holda ushbu xizmatlarni ilgari surish muhim hisoblanadi.

<sup>15</sup> Ваген Лини Ван Дер. Гостиничный бизнес: Учебное пособие. Ростов н/Д., 2001.

<sup>16</sup> Уокер Д.Р. Введение в гостеприимство. Учебник. Издательство: ЮНИТИ-ДАНА. М., 2012. 735 с.

<sup>17</sup> Уэбстер Эллейн Л. Толковый словарь Эс Джей. Переводчик. Пуксант Марина; 2022 г. 304 с.

<sup>18</sup> Браймер Р.А., Бейкер С.А., Пейдж Г.С.и др. Основы управления в индустрии гостеприимства. Авториз. пер. Е.Б.Цыганова. - Москва: Аспект-пресс, 1995. – 381 с.

<sup>19</sup> Muallif ishlanmasi.

3.	B.L.Solovev, L.A.Tolstov	Mehmondoʻstlik industriyasining asosiy tarkibiy qismlari boʻlib, yuqorida qayd qilingan faoliyat turlari roʻyxati emas, balki mehmondoʻstlik biznesida samarali faoliyat koʻrsatishning asosiy meʼzonidir.	Mehmondoʻstlik industriyasini rivojlantirishda ushbu biznesda samarali foydalanish koʻrsatishi mezonlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.
4.	L.Vagen	Mehmondoʻstlik industriyasi – bu turistlarni joylashtirish, alkogol ichimliklar sotish, turar joy va oziq-ovqat taqdim etish, shuningdek, koʻngilochar tadbirlarni tashkil etishga yoʻnaltirilgan faoliyat sohasidir.	Tashrif buyurgan turistlarni joylashtirish, turistlarni ovqatlantirish orqali koʻngilochar tadbirlarni koʻproq oʻtkazish.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, xorijiy metodologiyada mehmondoʻstlik industriyasi oʻz ichiga joylashtirish, umumiy ovqatlanish, transport va madaniy-koʻngilochar sektor korxonalarini oladi. Sobiq ittifoq davrida esa joylashtirish va ovqatlantirish xizmatlari bilan bogʻliq faoliyatni ifodalash uchun “mehmonxona xoʻjaligi” yoki “mehmonxona-restoran xoʻjaligi” tushunchalari ishlatilgan. Keyinchalik esa bu sohada “mehmonxona xoʻjaligi” oʻrniga “mehmonxona industriyasi” atamasini qoʻllash odat tusiga kirgan. Ushbu yangi atama faoliyatning barcha tomonlarini oʻz ichiga oladi, chunki mehmondoʻstlik industriyasi mehmonlarga diqqat-eʼtibor, mehribonlik va iliq, doʻstona munosabat koʻrsatishni nazarda tutadi. Shuningdek, “mehmondoʻstlik industriyasi” termini bozorni rivojlantirish uchun qoʻshimcha investitsiyalarni jalb qilishga va ushbu faoliyatni ijobiy talqin qilishga imkon beradi.

Mehmondoʻstlik industriyasi tarkibiga quyidagilar kiradi:

- umumiy ovqatlanish korxonalarini;
- transport xizmatlari;
- joylashtirish xizmatlari;
- madaniy-koʻngilochar xizmatlar.

Shunday qilib, bizning fikrimizcha mehmondoʻstlik industriyasi – bu mehmonlarni qabul qilish va ularga xizmat koʻrsatish bilan bogʻliq boʻlgan xizmatlar bozoriga ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish, joylashtirish, tashish va dam olish boʻyicha barcha xizmatlarni oʻz ichiga oluvchi tushunchadan iborat ekan.

### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PQ-4095-sonli “Turizm tarmogʻini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori
2. Tuxliyev I.S. Abduxamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik (Uchinchi nashr) –T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2021 y. - 424 b.
3. Браймер Р.А., Бейкер С.А., Пейдж Г.С.и др. Основы управления в индустрии гостеприимства. Авториз. пер. Е.Б.Цыганова. - Москва: Аспект-пресс, 1995. – 381 с.

4. Зорин И.В., Квартальнов В.А. Энциклопедия туризма. Справочник. М.: Финансы и статистика, 2003. 368 с.
5. Соловьев Б.Л., Толстова Л.А. Менеджмент гостеприимства. М., 1997. 108 с.
6. Чудновский А.Д. Туризм и гостиничное хозяйство. Учебник. - М.: Ассоциация авторов и издателей «Тандем». Издательство ЭКМОС. 2001, - 400 с.
7. Ваген Лили Ван Дер. Гостиничный бизнес: Учебное пособие. Ростов н/Д., 2001.
8. Уокер Д.Р. Введение в гостеприимство. Учебник. Издательство: ЮНИТИ-ДАНА. М., 2012. 735 с.
9. Уэбстер Элейн Л. Толковый словарь Эс Джей. Переводчик. Пуксант Марина; 2022 г. 304 с.
10. Pardayev M.Q., Halikulov A.N., Raximov X.A. “Mehmonxona xo’jaliklarida samaradorlikni oshirish muammolari” nomli monografiya T.: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2013. - 44 bet.
11. M.X.Xamitov. Mehmonxona xo’jaligida servis faoliyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand 2023 y, 157 b.